

---

## Ahdi baland qo'shtepaliklarga zafar muborak!

Qo'shtepa tumanida paxta hosilining dastlabki karvoni tarozidan o'tkazilganda duoi fotiha qilinib, erta bahordan yetishtirilgan hosilni betalofat yig'ishtirib olinishi, barakali xirmon uyulishi tilangan edi. Astoydil harakat va tinimsiz mehnatlar samarasida yaxshi niyatlar ijobat bo'ldi va 2024 yil rejasi bajarilib, davlatga 24 ming 600 tonna paxta topshirildi.

Bu yil tumanda 147 ta fermer xo'jaligi tasarrufida 6 ming 790 gektar maydonda hudud iqlimiga mos "Namangan-77", "S-8290" kabi g'o'za navlari klaster usulida parvarishlandi va Fermer xo'jaliklarining texnika, mineral o'g'it va yoqilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash, terimchilarga shart-sharoit yaratish va rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Joriy yilda pilla va g'alladan ham barakali xirmon yaratib yuzi yorug' bo'lgan tuman ahliga navbatdagi zafar muborak!















2024-11-27 17:13:15